



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH  
VAZIRLIGI TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI  
REKTORINING  
BUYRUG‘I**

2023 yil “7” aprel 00361 - son

**“Eshitish buzilishlarini tashxislash va reabilitatsiya qilishning dolzarb muammolari” ilmiy-amaliy konferensiyasi va mahorat darsini o‘tkazish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-sentabrdagi “Respublika oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan, ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanayotgan iqtidorli yoshlarni yanada qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi PF-6309-sonli Farmoni va 2019-yil 6-maydagi “Tibbiyot va farmatsevtika ta’limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4310-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-yanvardagi “Ilmiy-innovatsion ishlanma va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 24-sonli qarorida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta’minlash maqsadida

**BUYURAMAN:**

1. “Eshitish buzilishlarini tashxislash va reabilitatsiya qilishning dolzarb muammolari” mavzusida konferensiyasi (keyingi o‘rinlarda - konferensiya) 2023-yil 12-mayda va shu mavzudagi mahorat darsi (keyingi o‘rinlarda - mahorat darsi) 2023-yil 13-mayda xorijiy mamlakatlarning yetakchi tashkilotlari bilan TTA o‘rtasida imzolangan memorandumlar doirasida ilm-fan sohasida o‘rnatilgan samarali xalqaro aloqalarni yanada mustahkamlash va o‘zaro tajriba almashish maqsadida Rossiyaning Otorinologiya milliy tibbiy tadqiqot markazi hamda AQShning Still Universiteti bilan hamkorlikda TTA Otorinologiya va stomatologiya kafedrasida o‘tkazilsin.

2. Konferensiya va mahorat darsiga tayyorgarlik ko‘rish, tashkillashtirish va uni o‘tkazish uchun Otorinologiya va stomatologiya kafedra mudiri U.S.Xasanov, kafedra professori Shayxova X.E., kafedra dotsenti Xaydarova G.S., kafedra dotsenti M.M.Jafarov, kafedra dotsenti J.A.Djurayev, kafedra katta o‘qituvchisi A.Z.Shaumarovlar mas’ul etib belgilansin.

3. Quyidagilar:

Konferensiya hamda mahorat darsi dasturi 1-ilovaga muvofiq;

Konferensiya hamda mahorat darsini o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy guruh tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Mazkur buyruq ijrosining nazorati O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov zimmasiga yuklatilsin.

**Rektor**



**A.Shadmanov**

**Buyruq kelishuvi**

**Tayyorladi:**

**U.Xasanov**

**Kafedra mudiri**

**Kelishildi:**

**Sh.Boymuradov**

**O'quv ishlari bo'yicha prorektor**

**Sh.Islomqulova**

**Yuriskonsult**

**F.Azizova**

**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar  
bo'yicha prorektor**

**Z.Muminova**

**Bo'lim boshlig'i**

**A.Xamraev**

**Kafedra mudiri**

**M.Jafarov**

**Bo'lim boshlig'i**